



PARIS  
FRANCE  
CONFERENCE  
2024.

# International Conference on

# Modern Science and Scientific Studies

Vol 3, Issue 1, January 19th 2024

ISSN (E): 2835-3730 | SJIF 2024: 6.809



### Topics

- NATURAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES
- APPLIED SCIENCES
- MEDICAL SCIENCES
- ENGINEERING SCIENCES



E- CONFERENCE  
SERIES



**29. ВАЖНОСТИ ШАБЛОНИРОВАНИЕ СТВОЛА СКВАЖИНЫ ПРИ  
КАПИТАЛЬНЫМ РЕМОНТЕ СКВАЖИН**

Хайдаров Санжар Илхомович

133-135

**30. ҲОМИЛАДОРЛАР ИММУН ТИЗИМИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛЛАРИ  
НАТИЖАЛАРИ**

Мамасайдов Ж.Т., Мўйдинова М. Т.

136-137

**31. ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA PEYZAJ**

Karimova Dilnoza

138-144

**32. SIYOSIY INSTITUTLAR, JARAYONLAR VA TEXNOLOGIYALAR  
IXTISOSLIGI**

Xurshida Hasanova

145-148

**33. ОБРАЗ ВОСТОЧНЫХ ДЕВУШЕК В ЛИРИКЕ С. ЕСЕНИНА**

Кодиров Ойбек Икромали угли, Темуров Ж. Б.

149-151

**34. FEATURES OF THE LANGUAGE OF SOCIAL NETWORKS EXAMPLE OF  
INSTAGRAM**

Alautdinova Kamola Shomansurova, Turg'unova Muattarxon Muxtorjonovna

152-155

**35. METHODS OF STUDYING THE LEXICAL SEMANTIC ASPECTS OF  
SOMATISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Hakimova Gulsara Egamnazarovna, Jiyanova Jahona Ilhomovna

156-160

**36. ANALYSIS OF LEXICAL SEMANTIC FEATURES OF HYPONYMY IN  
ENGLISH - UZBEK LANGUAGES**

Sabirova Nodira Karimboyevna, Duschanova Shohida Baxramovna

161-165

**37. AN ANALYSIS OF THE ETYMOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LATIN  
BORROWINGS IN MODERN ENGLISH**

Bolibekova Mavjuda Mardiyevna, Jumanazarova Feruza Baxtiyorovna

166-171

**38. BUXORO VILOYATIDA MAYIZBOP UZUM NAVLARINI QURITITISH  
TEXNOLOGIYALARI**

Hakimova Nodira Xayrilloyevna, Farmonova Muxlisa Komilovna

172-175

**39. ArcGIS EVOLYUTSIYASI VA ARCGIS MUHITIDA KARTOGRAFIYA  
TAMOYILLARI**

Isaqov Valijon Yunusovich, Tobirov Odiljon Qobiljon o'g'li, Sobirova Xavasxon Xokimjon qizi,

Qo'shmurodova Hilola Adiz qizi

176-183

**40. ENERGIYA RESURSLARI GEOGRAFIYASI**

Isaqov Valijon Yunusovich, Sobirova Xavasxon Xokimjon qizi, Jumaboyeva Mushtariy Sherzod

qizi

184-191

## BUXORO VILOYATIDA MAYIZBOP UZUM NAVLARINI QURITITISH TEXNOLOGIYALARI

Hakimova Nodira Xayrilloyevna

b.f.f.d., dotsenti Buxoro davlat universiteti  
Agronomiya va biotexnologiya fakulteti

Farmonova Muxlisa Komilovna

Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Qishloq  
hojaligi maxsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi 2-kurs talabasi

“O‘zbekiston Respublikani yanada rivojlantirishga doir Harakatlar strategiyasida Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish va muttasil mo‘l va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga” alohida e‘tibor berilgan.

“Meva –sabzavotchilik va uzumchiilkda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori (PQ-20son, 23.11.2021yil) qabul qilindi. Mazkur qaror bilan fermer va klasterlarning past hosilli paxta va g‘alladan qisqartirilgan 20 ming gektar ekin maydoni 2022-2025 yillarda zahiraga qaytariladi. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida uzum hosilini talofatsiz yig‘ishtirib olishda avvalam bor, uni pishishidan oldin chamalash, ya’ni hosil bashoratiga binoan uni yig‘ishtirish rejasini tuzish, hosilni yig‘ib olish, quritish va saqlashga zarur asbob-uskunalar, quritgichlar, quritish uchun tayyorlanagan maydon, transport vositalari, qishga saqlash uchun vaqtinchalik va doimiy sovutgichli omborlarni tayyorlash, xuddi shunday agrotexnik chora-tadbirlarni o‘tqazilish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uzum mevasini tashish va saqlaydigan idish qutilari, kerakli uzum mevasini qirqib oluvchi maxsus tok va boshqa qaychilarni shay qilib qo‘yish va quritish maydonchalarini tayyorlash kerak bo‘ladi. Uzum mahsulotlarini qishda saqlash uchun omborlarni tayyorlash va shu kabi bir qator ishlab chiqarish texnologik ishlarni ham e‘tibordan chetda qoldirmasligi lozim bo‘ladi. Hosilni yig‘ishtirib olish vaqti, uning pishganligi yoki ma’lum bir mahsulot ishlab chiqarish uchun uzumning qandlilik va kislotalilik darajasi aniqlanadi.

Musallas (oq musallas) tayyorlash uchun uzum mevasining qandliliigi 17-18%, qizil musallas uchun– 18-20% ligida va xo‘raki uzum navlarini tarkibida qand miqdori



16-17% bo'lganda yig'ishtirib olish tavsiya etiladi. Tayyor uzum hosilini quritish yoki uzoqqa yuborish uchun mo'ljallangan uzumzor maydonlarini hosil yig'ishtirib olishdan 2-3 hafta oldin sug'orish ishlarini to'xtatilishi tavsiya etiladi. Uzumlarni tashish va saqlash uchun yog'ochdan yoki plastmassadan yasalgan 10- 12 kg li quti va savatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Buxoro viloyati sharoitida urug'li xo'raki navlardan - Kattaqo'rg'on, Qora janjal, Sultoni, Qora kaltak, Rizamat, Shtur angur, Aleksandr Muskati kabi va boshqa navlar quritish uchun ishlatiladi. Urug'g'siz uzum navlaridan asosan, quyidagilar quritishga tavsiya etiladi: Oq kishmish, Oftobi, Qora kishmish, Lo'nda kishmish, Xishrav kishmish, Kishmish Sug'diyona, Kishmish Samarqand, Nilufar va boshqalar. Qora Kishmish. O'zbekistonda keng tarqalgan kishmishbop navlar orasida yetishtiriladigan maydoni va yalpi hosili, shuningdek, quritilish hajmi bo'yicha birinchi o'rinda turadi, bu navga xo'randalarning talab darajasi yuqori hisoblanadi, quritilgan mayizlar uzoq saqlanadi. Uzum boshisi yirik (uzunligi 19-21 sm, yeni 10-11 sm), silindrsimon yoki konussimon, kamdan kam qanotli, ko'pincha tig'iz emas. Kishmish Sug'diyona. So'nggi paytlarda Kishmish Sug'diyona navi g'ujumining yirikligi tufayli, keng tarqalmoqda va bog'bonlar tomonidan yuqori qadrlanmoqda va bu nav eksportbop ahamiyatga ega hisoblanadi, mayizining yirikligi bilan ajralib turadi. Uzumboshisi yirik (uzunligi 25 sm, yeni 16 sm), shoxlangan, o'rtacha bo'sh yoki bo'sh. O'rtacha og'irligi - 400-450 gramm. Ayrim 119 uzumboshlar 40-50sm uzunlikkacha boradi va vazni bir kg dan oshadi.

Quyosh energiyasi bilan ishlovchi ushbu meva-sabzavot quritgichi konstruksiyasining eng 120 soddaligi bilan ajralib turadi. Bu quritgich respublikamizning barcha viloyatlarida shu jumladan, Buxoro viloyatida ham tadbiiq etilmoqda. Quritilgan mahsulotning ekologik tozaligi, sifatliigi, tashqi obhavoning noqulay omillaridan (yog'ingarchilik, chang, hasharotlar va boshqalar) ishonchli himoyalanganligi, eng muhimi, jahon andozalariga mos quritilishi va yuqori sifatli mahsulot olinishi bilan birgalikda bir kecha kunduzda 350 kg gacha mahsulot quritish mumkinligi bilan ajralib, o'zining afzalligini ko'rsatmoqda. Mazkur quritish asbobi quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) quyosh energiyasi kollektori maydoni 16 m<sup>2</sup> b) quritish maydoni 20 m<sup>2</sup> v) Quyosh batareyasi g) Ventilyatorlar Quritgich bir xil balandlikdagi g'isht yoki beton ustunlarga o'rnatiladi. Quritgichning tubi maxsus alyumin profildan yasaladi, ustki qismi ikki nisbatli ramadan iborat bo'lib, quyosh radiatsiyasiga chidamli polietilen plenka bilan yopiladi. Quritgich ikki qismga ajraladi: issiqlik yig'uvchi (kollektor) va mahsulot qurituvchi (foydali). Quritgichning ishlash prinsipi quyidagichadir. Uning issiqlik yig'uvchi qismi



yuqorisiga oʻrnatilgan batareya quyosh energiyasi yordamida ostki tomonga oʻrnatilgan ventilyatorlarni ishga tushiradi va yigʻilgan issiq havo mahsulotlarga yoʻnaladi. Quritgichning yana bir afzalligi shundaki, kunning quyoshsiz vaqtlarida batareya energiya toʻplamaydi va ventilyatorlar ishdan toʻxtaydi, bu esa issiq havo oqimini boshqarib turishda inson omili ishtirokini istisno etadi.

Qurtilgan uzum xillaridan quyidagi turdagi mahsulotlar olinadi: Bedona – mayizi olish uchun ishqor eritmasi va oltingugurt angidridi ishlatilmay, u oftobda Oq kishmishni quritishdan hosil boʻladi; Sabza - qaynoq ishqor eritmasiga uzumboshilar botirib olinib, oftobda quritiladi; Zarsimon sabza - avvalo ishqor eritmasiga botirib olinib oltingugurt angidridi bilan dudlanadi, soʻngra shtabelda quritiladi. U asosan Oq kishmishdan tayyorlanadi. Soyaki - maxsus xonalarda, Oq kishmish uzumi soya joyda quritiladi, bunda ishqor va oltingugurt qoʻllanilmaydi. Shigʻoniy(Shibirgʻoni) - Qora kishmish navini oftobda quritib olinadi. Germiyon - Kattaqoʻrgʻon, Sultoni, Nimrang kabi yirik gʻujumli uzum navlaridan tayyorlanadi. Quritishdan avval, uzum qaynoq ishqorga botirib olinadi, keyin ochiq joyga yoyib qoʻyib quritiladi. Shtabel germiyon - Kattaqoʻrgʻon, Sultoni, Nimrang kabi navlardan oltingugurt bilan dudlanib tayyorlanadi, keyin shtabellarga taxlab quritiladi.

Oʻzbekistonda, jumladan Buxoro viloyatida ham uzumni saqlashning bir qator oddiy va xalq usullari qoʻllaniladi. Masalan, uzumning bandidan osib saqlash, pishgan, sogʻlom uzum boshlari uzilib, bir-ikki kun bandlari va poʻstlarini soʻlitish uchun soya joylarda saqlanadi. Soʻngra ularni ikkitadan kanop ipga bogʻlab maxsus bino ship ostiga oʻrnatilgan soʻkchaklarda osiladi. Bino ichidagi havo harorati 00S yoki 0.5°C, nisbiy namligi esa 80-90% atrofida boʻlishi lozim. Bu usulda uzumni yanvar-fevral oylarigacha yaxshi saqlash mumkin. Gʻujumlari biroz burishib tashqi koʻrinishi oʻzgartirsa-da, ammo uning xushtaʼmliги saqlanib qoladi.

Uzumlarni saqlash va tashish uchun qoʻllaniladigan yangi zamonaviy usullaridan yana biri bu - suyuq va gaz holdagi azotni qoʻllashdir. U kameraga qamalgan holda yuborilsa, kislorod miqdorini kerakli konsentratsiyagacha kamaytirish mumkin boʻladi. Bir necha marta azot yuborilgan kamera moʻjaldan ortib ketsa, uning ortiqchasi maxsus moslama orqali soʻrib olinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi” toʻgʻrisidagi PF -4947- sonli farmoni.



2. Abdullaev R.M. va boshqalar. Uzum yetishtirish va mayiz quritish- ning zamonaviy texnologiyasi. T. Fan. 2011, 54 b.
3. Ma'murov F. Uzumchiliklarning zamonaviy asoslari, 2020, 205 b.
4. R. Yunusov, G'.A. G'anieva, X.X. Salimova. Uzumni saqlash va qurutish texnologiyasi. Durdona nashiryoti, Buxoro, 2022, 33 b.
5. Temirov Sh., Uzumchilik. O'zbekistom Milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashiryot, Toshkent 2005, 248 b.
6. Ходжимуродова Н.Р., Хакимова Н.Х., Тураева Н.Н. Микроорганизмы орошаемых почв Бухарского Оазиса. / QarMII Innovatsion texnologiyalar. Innovative technologies. Ilmiy-texnik jurnal - Qarshi. 2021/1(41)-son .B.72-76
7. Hakimova N.X., Tokhirov B., O'ktamova M., Akramova M. Mobile phosphorus and potassium in the soil determination / International Journal for Innovative Engineering and Management Research. [www.ijiemr.org](http://www.ijiemr.org) doi:10.48047/ijiemr/v10/104/111 .vol10 issue04, april2021. impact factor 7.819.
8. Курвантаев Р., Мазиров М.А., Хакимова Н.Х., Солиева Н.А. Эволюция и прогноз развития орошаемых типичных и светлых серёзюмов на третьей террасе реки Зарафшан. / Владимирский земледелец. Научно-практический журнал. №4(98) 2021 DOI:10.24412/2225-2584-2021-4-14-20.
9. Hakimova N.X., Isroilova N.X., To'yumurodov Sh.T., Boboyev A.H. The importance of microorganisms in the saline soils of the Bukhara oasis. / Laboratorium WIEDZY Artur Borcuch Gospodarka I Innowacje Volume: 21/2022. Impact Factor: 8.01.

